

DAVLAT BOSHQARUVIDA RAHBARNING NUTQ MADANIYATI

Aripova Aziza Xasanovna

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
O'zbek va rus tillari kafedrası dotsenti, f.f.n. (PhD)
aarpova@uwed.uz

Annotatsiya

Davlat va jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichi boshqaruv tizimida faoliyat yuritayotgan rahbarlar oldiga ma'lum talablarni qo'yadi. Bu talablarga rioya etmaslik muvaffaqiyatsizlikka, belgilangan maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarning samarasizligiga olib keladi. Rahbarning nutq madaniyati tushunchasi haqida gapirishdan oldin, bu mavzuning bugungi global o'zgarishlar davrida o'ta muhimligini ta'kidlash joiz. Maqolada aynan shu jihatlar to'laqonli ravishda tahlil ostiga olingan hamda rahbar uchun muhim sanalgan nutq madaniyati, muomala madaniyati tushunchalariga to'xtalgan. Xususan, madaniyatli bo'lishda nimalarga e'tiborni qratish muhimligi, madaniyat va ma'naviyatli bo'lishlikning boshqaruvdagi o'rni batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlari: madaniyat, jamiyat madaniyati, shaxs madaniyati, inson faoliyati, moddiy madaniyat, ma'naviy madaniyat, ma'naviyat, menejment madaniyati, huquqiy me'yor, iqtisodiy me'yor, tashkiliy me'yor, texnikaviy me'yor, estetik talab, kooperatsiya, boshqaruv madaniyati, rahbar madaniyati, odob, iymon, iqror, uslub, boshqaruv uslubi, ish uslubi, rahbarning ish uslubi.

**РЕЧЕВАЯ КУЛЬТУРА РУКОВОДИТЕЛЯ ГОСУДАРСТВЕННОГО
УПРАВЛЕНИЯ**

Арипова Азиза Хасановна

Университет мировой экономики и дипломатии
Доцент кафедры узбекского и русского языков, к.ф.н. (PhD)
aarpova@uwed.uz

Аннотация

Каждый этап развития государства и общества предъявляет определенные требования к руководителям, действующим в системе управления. Несоблюдение этих требований приводит к неукспеху, неэффективности работы, проводимой в направлении поставленной цели. Прежде чем говорить о понятии речевой культуры руководителя, стоит отметить, что эта тема чрезвычайно важна в современную эпоху глобальных перемен. В статье были всесторонне проанализированы эти аспекты и затронуты понятия культуры речи и культуры поведения, которые считаются важными для руководителя. В частности, подробно объясняется важность обращения внимания на культурность, роль культурности и духовности в управлении.

Ключевые слова: культура, культура общества, личная культура, деятельность, материальная культура, духовная культура, духовность, культура управления, правовая норма, экономическая норма, организационная норма, техническая норма, эстетическая потребность, сотрудничество, культура управления, культура лидерства, манеры, вера, исповедание, стиль, стиль управления, стиль работы, стиль работы руководителя.

SPEECH CULTURE OF A MANAGER PUBLIC ADMINISTRATION

Aripova Aziza Khasanovna

University of World Economy and Diplomacy

Associate Professor of the Department of Uzbek and Russian Languages, Ph.D.

aaripova@uwed.uz

Annotation

Each stage of development of the state and society makes certain demands on leaders operating in the management system. Failure to comply with these requirements leads to failure and ineffectiveness of work carried out towards the goal. Before talking about the concept of a leader's speech culture, it is worth noting that this topic is extremely important in the modern era of global change. The article comprehensively analyzed these aspects and touched on the concepts of speech culture and behavior culture, which are considered important for a leader. In particular, the importance of paying attention to culture, the role of culture and spirituality in management is explained in detail.

Keywords: culture, society culture, personal culture, activity, material culture, spiritual culture, spirituality, management culture, legal norm, economic norm, organizational norm, technical norm, aesthetic need, cooperation, management culture, leadership culture, manners, faith, confession, style, management style, work style, manager's work style.

Introduction

Bugungi kunda har qanday rahbar ishining samarasi ko'p jihatdan uning nutq madaniyati, odamlar bilan muloqotdagi jarayoni va bilvosita notiqlik mahoratiga bog'liq. Hozirgi sharoitda boshqaruv tizimida ishlayotgan har qanday rahbar uchun, u biron - bir korxona, tashkilot, jamoa rahbari bo'ladimi yoki siyosiy arbob bo'ladimi, odamlar bilan muloqot madaniyatini o'zlashtirish, jonli so'z vositasida kishilarga O'zbekiston hukumati siyosatini to'g'ri tushuntira olish, mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlar jarayonida faol ishtirok etish va fuqarolik burchlarini chuqur anglab yetishlariga yordam berish muhim ahamiyatga ega.

Rahbarlikda nutq madaniyatini egallash juda muhimdir. Insoniyat o'z rivojlanish jarayonida juda katta boshqaruv (menejment) tajribasini jamlagan. Bozor sharoitida bu tajriba boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilish kerak. Boshqaruvning vujudga kelishi va rivojlanishi, avvalo rahbarlik madaniyati darajasi yuksalishi bilan bog'liqdir, chunki, boshqarish prinsiplari va yo'llari, usullari, vosita va uslublariga tanqidiy baho berish yo'li bilan, ularning eng yaxshilari tajribasida qo'llashi uchun ajratib olinadi.

Mamlakatimiz rahbari Prezident Shavkat Mirziyoyev: “Har bir rahbar o‘z ish uslubini o‘zgartirsa, qishloqda, mahallada o‘zgarish bo‘lsa, iqtisodiyot ham rivojlanadi”, deb ta’kidlashlari rahbar oldiga bir qancha talablarni qo‘yadi. Mamlakatimizning har bir hududi o‘ziga xos. Bir viloyat ichidagi tumanlarning imkoniyatlari ham bir-biriga o‘xshamaydi. Shu bois, axoli bilan ishlashda har bir rahbar, avvalo muloqot qilishga e’tiborini qaratishi va nutq madaniyati tamoyillarini egallashi – o‘z vazifasini bajarishida muhim foizni qamraydi.

Boshqaruv madaniyati inson madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lish bilan birga qator o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega. Madaniyatga ega bo‘lish rahbar uchun faqat zarur emas, balki shartdir, chunki har bir tashkilotning har bir bo‘linmasi samarali ishlashi uchun uning xodimlari yuksak madaniyatga ega bo‘lishlari kerak.

Rahbarlik madaniyati darajasi xodimlar, ayniqsa, menejerlar madaniyatini, menejment jarayoni madaniyati, boshqaruv texnikasi, mehnat sharoitini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholanadi. Menejment madaniyati unsurlarining turli-tumanligi boshqaruv jarayonida turli-tuman me’yorlarga, jumladan, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, estetik me’yorlarga rioya qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Madaniyat rivojlanish darajasining umumlashtiruvchi ko‘rsatkichi bo‘lib, bir qancha ma’noni bildiradi. Masalan, jamiyat madaniyati, ayrim shaxs madaniyati, va nihoyat, inson faoliyatining ayrim turi madaniyati haqida so‘z yuritish mumkin. Inson faoliyati moddiy va ma’naviy boyliklar yaratuvchi turlarga bo‘linadi. Shu sababli, moddiy va ma’naviy madaniyat farq qilinadi. Moddiy madaniyat inson tomonidan tabiatni bo‘ysundirish darajasi ko‘rsatkichidir. Unga ishlab chiqarish vositalari va mehnat predmetlari kiradi. Ma’naviy madaniyatga fan, aholi ma’lumot darajasi, medisina xizmati darajasi, san’at darajasi, odamlar axloqiy me’yorlari, ma’naviy ehtiyojlar va manfaatlar rivojlanishi darajasini kiritish mumkin. Shunday kilib, madaniyat insonning ham madaniy ishlab chiqarish, ham ma’naviy hayot sohasida rivojlanishi jarayonidagi yutuqlarini qamrab oladi. U insoniyat bilimlari, uning mehnati mohiyatidan iborat bo‘lib, kishilarning avvalgi avlodlari tomonidan yaratiladi.

Insoniyat madaniyati o‘svuchan, o‘zgaruvchan, chunki hozirgi avlod avvalgi avlodlar madaniy qadriyatlaridan ijodiy foydalanish asosidagina yanada rivojlanishi mumkin.

O‘zbekistonning noyob madaniyati yillar, asrlar davomida shakllanib, uni saqlash, rivojlantirish ko‘p millatli respublikaning yuqori ma’lumotli insonlari – fan, adabiyot, san’at arboblari vazifasidir.

Inson hayoti faoliyatining muhim tarkibiy qismi butun insoniyat tomonidan jamlangan madaniy boylikka ega bo‘lishi, shu jumladan boshqaruv - rahbarlik madaniyatini egallashdir. Endi shu narsani ham ta’kidlash o‘rinliki, madaniyatli rahbar ma’naviyati ham keng qamrovli bo‘lishi o‘ta muhim. Ma’naviyat o‘zi nima, degan savolga, “ma’naviyat” arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, ruh, aql, ong, idrok, ruhiy holat, ichki kayfiyat, jalillik, jasorat, xususiyat, mohiyat, g‘amxo‘rlik, qayg‘urish did kabi bir necha ma’nolarni anglatashini hamda odamning ruhiy va aqliy olami yig‘indisi ekanligini aytish o‘rinli. Ma’naviyat jamiyatning, millatning yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruxiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, mdrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha.

Ma'naviyat – inson va jamiyat madaniyatining negizi, inson va jamiyat hayoti ma'lum yo'nalishining bosh omili. U muayyan iqtisodiy-ijtimoiy hayot tizimining shakllanishi, o'zgarishi yoki inqirozga yuz tutishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Ma'naviyat boyib borsa, jamiyat ravnaq topib boradi va aksincha, ma'naviyat qashshoqlashsa, jamiyat bora-bora tanazzulga yuz tutadi.

Ma'naviyat insonning ruhiy olamidir. Ma'naviyat keng tushuncha bo'lib, ma'rifat va madaniyat tushunchalarini qamrab oladi. Ma'naviyat inson ko'rki bo'lib, uning ichki va tashqi dunyosida namoyon bo'ladi. Bu ruh va aql bilan uzviy bog'liq.

Endi bevosita shuni ta'kidlab o'tish joizki, rahbarlik faoliyatida eng muhim mezon – **rahbarning nutq madaniyati** hisoblanadi. Rahbar o'z faoliyatida nutq madaniyati va notiqlikni egallashi lozim.

Notiqlik san'ati (ritorika) fan sifatida qadimgi Yunonistonda eramizdan avvalgi IV-V asrlarda paydo bo'ldi. Ammo notiqlik san'atiga ehtiyojning paydo bo'lishini insoniyat tarixidagi ilk davlatchilikning shakllanishi davri bilan bog'lash mumkin. Nutq davlatni boshqarish, xalqni hokimiyat atrofida birlashtirish va muayyan maqsadlar sari yo'naltirish, turli toifadagi odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish kabi ishlarning barini amalga oshirishning bosh vositasidir.

Notiqlik san'ati murakkab san'at bo'lib, uni egallash kishidan qunt va chidam, malaka va tajriba talab etadi. Haqiqiy nutq katta mahorat va puxta tayyorgarlikning mahsulidir. Oddiy, madaniy va savodli so'zlashni o'rgangan notiq, notiqlik san'atini egallashga birinchi qadamni qo'ygan hisoblanadi. Umummadaniyatni belgilovchi asosiy omil hisoblangan notiqlik san'ati, shuningdek, nutq odobi, muomala madaniyati, ularning o'zaro munosabati kabi masalalarning o'zgarishi hozirgi kunda O'zbekiston mustaqillikka erishgan, o'zbek tili ana shu mustaqil mamlakatning davlat tili maqomini olgan paytda, Ayniqsa, katta ahamiyat kasb etadi. Har qanday jamiyatda tilni rivojlantiruvchi kuch nutq hisoblanadi.

Nutq - bu til deb ataluvchi, o'ta muhim vazifalarni bajaruvchi noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari imkoniyatlarining borlik, tafakkur, ong hamda vaziyat kabi hodisalar bilan muhim munosabatda namoyon bo'lishidir. Nutq jarayoni - tilning o'z vazifasini bajarish hamda amalga oshirish jarayoni.

Til va nutq bir-biriga bog'liq hodisadir. Ularni bir-biridan ajratish mumkin emas. Til – bu qurol. Til nutq uchun moddiy materialdir. Lekin, shu bilan bir qatorda ular bir-biridan farq ham qiladi. Til kishilarga doimo o'zaro aloqa, munosabat, madaniy–ma'naviy zaruriyat, jamoa bo'lib birlashish, kurashish quroli bo'lib ham xizmat qiladi.

Nutq - insonlarning til orqali bir-birlari bilan muomala va aloqa qilish usulidir. Inson nutq yordamida o'zining fikri, his-tuyg'ulari, mayl va istaklarini boshqalarga aytib beradi va boshqalarning fikrlari va xohish istaklarini anglab oladi. Nutq vositasi bilan aloqa bog'lash insonning doimiy ehtiyoji bo'lib, bu aloqa fikr almashuviga xizmat qiladi.

Har bir kishining uning nutqi yoshiga, bilimiga, umuman, madaniy saviyasiga qarab, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Har bir kishining o'z nutqi bor. Nutqda har qanday fikr mantiqan asoslangandagina uning ta'sirchanligi kuchli bo'ladi. Aniqlik, izchillik va dalillilik – to'g'ri fikr yuritishning zaruriy xususiyatidir. Nutq to'g'ri bo'lishi uchun fikrlar aniq va muayyan, bir–

biriga izchil bog‘langan bo‘lishi, mavzudan chetga chiqmaslik zarur, mazmunida ziddiyatli va poyma–poy, noaniq gaplar bo‘lmasligi kerak.

Hukmlar va xulosalar asosli bo‘lmog‘i lozim, yo‘qsa ishonarli bo‘lmay qoladi. Demak, nutq – bu notiqning tinglovchilarga bilim, ko‘nikma va malaka berishi, ularda yangi haqiqatlarni ocha bilishga qodir bo‘lgan ijodiy, mantiqiy tafakkur tarbiyasidir.

Nutq boyligi tildagi imkoniyatlar, ya‘ni til boyligining unda qay darajada o‘z aksini topganligi bilan belgilanadi. Nutqda tildagi rang-barang vositalar o‘z ifodasini topgan bo‘lsa bunday nutq boy nutqdir. Har bir kishi o‘z nutqiga e‘tibor qilsa, nutq tuzish mas‘uliyatini his etsa, nutqning boy bo‘lishini ta‘minlashi mumkin. Zero so‘zga, nutqqa e‘tiborsizlik bilan qarash uni qashshoqlashtiradi. Bu esa tilning qashshoqlashishiga ham sabab bo‘ladi.

Ma‘lumki, nutq og‘zaki va yozma ko‘rinishga ega. Og‘zaki nutq tezkorlik bilan amalga oshadi. Tushunchalar bilan —uning libosilbo‘lgan so‘z birgalikda —yashin tezligida tilga kela boshlaydi. Og‘zaki nutqda so‘z birikmalari va gaplarning modellari aytilmoqchi fikrlarga monand holda tezkorlik bilan tanlanadi. Og‘zaki nutqda, odatda, muloqot uchun eng zarur so‘zlar zuhur etiladi. Bu, bir tomondan, vaqt iqtisodi bilan, ikkinchidan, nutq kuchini tejash bilan bog‘liq. Shunga ko‘ra, unda uzundan-uzoq kirish, keng izohlar ham uchraydi. Ayniqsa, hodisalar, narsalarning o‘zaro bog‘liqlik darajasi, ularning tinglovchi va so‘zlovchiga ravshanligi darajasi hisobga olinadi. Og‘zaki nutq so‘z boyligi jihatidan yozma nutqqa nisbatan ancha kambag‘al bo‘ladi.

Og‘zaki so‘zlovchining faol nutqiy harakati to‘xtam (pauza), ohang, urg‘u, turli-xil imo- ishoralar yordamida tinglovchiga yetib boradi.

Og‘zaki nutq dastlab ikki turga ajratiladi:

1.Oddiy so‘zlashuv nutqi;

2.Adabiy so‘zlashuv nutqi

Oddiy so‘zlashuv nutqi o‘zbek tilida tabiiy holda mavjud bo‘lgan og‘zaki nutq ko‘rinishlaridan iborat. Ularga turli o‘zbek sheva va lahjalari tili, ya‘ni dialektik nutq ko‘rinishlari, shevachilik unsurlari ta‘sirida bo‘lgan kundalik so‘zlashuvning boshqa ko‘rinishlari kiradi. Oddiy so‘zlashuv nutqining til bazasini adabiy til tashkil etmaydi. Shuning uchun oddiy so‘zlashuvdan biz talqin qilayotgan nutq madaniyati talab qilinmaydi. Oddiy so‘zlashuv oldiga qo‘yiluvchi nutqiy talablar aniq lahja va shevalarning tabiiy normalari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Adabiy so‘zlashuv nutqi – adabiy til normalariga amal qilgan holda gapirishdir. Adabiy tilda so‘zlash adabiy tilda yozishga nisbatan ancha qiyinchilik bilan erishiladigan jarayondir.

Buning sabablari:

- og‘zaki nutqda shevachilikning ta‘siri kuchli bo‘ladi;

- og‘zaki nutqda yozma nutqdagi kabi o‘ylab ish tutish imkoni kam bo‘ladi.

- og‘zaki nutqning o‘ziga hos grammatik tuzilishi, qurilish tartibi mavjud. (nutqda gap bo‘laklarining tushirib qolishi, qisqarib ketishi, o‘rin almashishi, aksincha keraksiz unsurlarning, takrorlarning bo‘lishi va boshqalar)

- og‘zaki nutqning yuzaga chiqishi so‘zlovchining kayfiyatiga, nutq so‘zlanayotgan vaziyatga, so‘zlovchi nutqiy a‘zolarining sog‘lomligiga bog‘liq.

Og‘zaki nutqning quyidagi vazifaviy ko‘rinishlari mavjud:

- Kundalik so‘zlashuv nutqi

- Lektorlar nutqi.
- Radio va televidenie nutqi.
- Sahna nutqi

Notiqlik san'ati nazariyasida til normasi markaziy tushunchalardandir. Til madaniyatining asosiy tekshirish ob'ekti adabiy til normalari, ushbu normadagi ikkilanishlarni bartaraf etish bo'lmog'i kerak.

Har qanday nutq, birinchi navbatda, ma'lumot berishi lozim. Ma'lumotning asosiy xususiyati shundan iboratki, u aniq bo'lishi lozim. Birinchi ma'lumot ijtimoiy hayotdan olinadi, agar u aniq faktlarga asoslangan bo'lmasa, notiqning obro'sizlanishiga olib keladi. Har bir ma'lumotga jiddiy va ilmiy yondashuv talab qilinadi. Bugungi kunda televidenie, radio, internet hamda gazeta va jurnallar orqali ma'lumotlar tez yetib kelmoqda. Zamonaviy notiqlik san'atidagi muammo-ma'lumotlarni to'g'ri ajrata bilish. Notiq qaerdan va qanday ma'lumotni olishi uning nutqi qurilishining asosiy poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Nutqdagi birinchi ma'lumotni ochib berish uchun keltiriladigan siyosiy, ilmiy, axloqiy, ma'naviy, ruhiy tahlillar orqali u ikkinchi darajadagi ma'lumotga aylanadi. Ya'ni birinchi ma'lumot barcha uchun tushunarli bo'ladi, u yangi sifat bosqichiga ko'tariladi, ma'lumotning ma'nosi, haqiqatligi isbotlanadi. Nutq ma'nosining asosini – haqiqat tashkil qiladi. Go'zal so'zlardan tashkil topgan so'zlar yig'indisi bilan insonlarni aldab bo'lmaydi.

Notiq nutqining ravonligi, ma'noli, go'zal nutqi, berilgan ma'lumotlari yangiligini badiiy asarga o'xshatish mumkin.

Birinchi ma'lumotni, ikkinchi ma'lumotga aylantirdik. Endi bu ma'lumotni ochib berish uchun muammoli vaziyatlardan foydalanish lozim.

Auditoriyaga ijtimoiy hayotdagi holatlardan kelib chiqib, masalani o'rta tashlash kerak - shunda muammo yuzaga keladi. Shu muammoni xal qilish uchun turli muammoli vaziyatlarni sharhlab isbotlash kerak bo'ladi. Demak, berilgan birinchi ma'lumotni haqiqatga yoki sarobga aylantirish notiqning san'ati, bilimi va mahoratiga bog'liq.

Nutqda har bir fikr mantiqan asoslangan taqdirdagina, uning ta'sirchanligi kuchli bo'ladi. Logika – fani grekcha —logos|| so'zidan olingan bo'lib, nutq, fikr, o'y demakdir. U - fikrlash qonunlari, shakllari va usullarini o'rgatuvchi fandir. Aniqlik, izchillik va dalillilik - to'g'ri fikr yuritishning zaruriy xususiyatidir.

Rahbarning ma'naviy madaniyati bu – rahbarda shakllangan (ichki) ruhiy quvvatdir. Rahbar shaxs ma'naviyati qanday bo'lishi kerak? Uning asosini qanday g'oyalar tashkil qiladi?

Rahbar shaxs ma'naviyatida, avvalo, mas'uliyat hissi yuksak bo'lishi lozim. Bu hisni nimalar tashkil qiladi?

Uni —inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlarini oliy qadriyat deb bilish tashkil qiladi.

Rahbarning ma'naviy madaniyatini tushuntirishdan oldin shaxs madaniyatiga to'xtalib o'tsak. Shaxs madaniyati - bu jamiyat madaniyati va ma'naviy ongini shaxs tomonidan o'zlashtirilish darajasi bo'lib, ma'naviyat talablari uning xatti-harakatlarida qanchalik mujassamligi ko'rsatkichidir. Shaxs madaniyati deganda, muayyan individga taalluqli bo'lgan, uning aqli va qo'li bilan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuasi, uning hayoti davomida insoniylikka va ma'naviy-axloqiy talablarga rioya qilishi bilan bog'liq bo'lgan xatti-harakatlari

tushuniladi. Shaxs madaniyati uning yaratgan bunyodkorlik g'oyalarida, milliy madaniyatga, milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga amal qilishida namoyon bo'lib, uning ma'naviy tarbiyalanganlik darajasini belgilaydigan mezonidir.

Shaxs madaniyati insoniylikka xos bo'lgan fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgani, avvalo,, uning sodda va kamtarligi, boshqalarga o'z tengidek munosabatda bo'lishida, boshqalarning bilim va tajribasiga hurmat bilan qarashi, odamlarga qo'lidan kelganicha beminnat yordam berishga harakat qilishi, o'ziga nisbatan talabchan, kamsuqum va boshqalardan ajralib turishga harakat qilmasligida yaqqol ko'rinadi. Shaxs madaniyati uni boshqa odamlar, jamoa bilan birlashtiradi, uning ko'plab do'st orttirishiga imkon yaratadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash joizki, shaxs madaniyati mukammal bo'lishi uchun u ma'naviy-axloqiy fazilatlarni o'zlashtirib, boyitib borishi, o'zini o'zi tarbiyalashi, nazorat qilishi va boshqara bilishi va bilimlarini boyitib borishi, o'zida madaniyatni rivojlantirib borishi kerak.

Rahbardagi madaniyat – uning rahbarlik faoliyati usuli va rivojlanish mezonidir. Rahbar o'z rahbarlik salohiyatini rivojlantirish uchun ma'naviy olamini boyitadigan bilimlarni, egallashi, tashabbuskorlik qobiliyatini oshirib borishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [iew.uz/uz/post/shavkat-mirziyoyev-har-bir-rahbar-oz-ish-uslubini-ozgartirsa-qishloqda-mahallada-ozgarish-bolsa-iqtisodiyot-ham-rivojlanadi](http://www.iew.uz/uz/post/shavkat-mirziyoyev-har-bir-rahbar-oz-ish-uslubini-ozgartirsa-qishloqda-mahallada-ozgarish-bolsa-iqtisodiyot-ham-rivojlanadi)
2. Bo'lajak mutaxassis kasbiy kompetensiyasini innovatsion ta'lim metodlari asosida rivojlantirish // A. Aripova Modern Science and Research
3. "The Live Word Is An Important Tool That Constitutes The Content-Essence Of The Oratory Art" // AK Aripova "The American Journal of Social Science and Education Innovations.